

Date: 7th October-2025

JADID ADIBLAR ASARLARIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING
KOMMUNIKATIV TAHLILI.

Ro`zimurodova Sitora Maqsiddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sitoraruzimurodova050@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adiblarining asarlarida murojaat birliklarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Fitrat, Avloniy, Cho'lpon, Hamza kabi jadid yozuvchilarning asarlarida murojaat shakllarining ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy vazifalari yoritilgan. Tadqiqot davomida murojaat birliklarining muallif va o'quvchi o'rtasida muloqotni ta'sirchan tarzda tashkil etishdagi roli aniqlanadi. Maqolada murojaatlarning ta'sirchanlik, ogohlantirish, da'vat va tarbiyaviy maqsadlardagi funksiyalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: murojaat, jadid adabiyoti, kommunikativ birlik, pragmatik tahlil, illokutsion maqsad, o'quvchi adresati, nutq madaniyati, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy uyg'onish.

Kirish. XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati o'zbek adabiy tilining yangilanishida, nutq madaniyatining rivojida va muloqot madaniyatining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Jadid adiblari — Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar — xalqni uyg'otish, ma'rifatga chorlash, milliy ongini shakllantirishda so'zning ta'sir kuchidan ustalik bilan foydalanganlar.

Murojaat birliklari bu jarayonda asosiy kommunikativ vositalardan biri sifatida xizmat qilgan. Ular orqali muallif bevosita o'quvchi bilan muloqotga kirishgan, unda fikrlash, anglash va harakatga undovchi psixologik holat yaratgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Fitrat asarlarida murojaatlarning ijtimoiy vazifasini quyidagicha talqin qilish mumkin: Fitrat "Munozara", "Rahbari najot", "Hind sayyohi bayonoti" kabi asarlarida murojaatlarni xalqni uyg'otish, millatni o'zligini anglashga da'vat etish maqsadida qo'llaydi:

"Ey millat!", "Ey musulmon birodar!", "Ey yoshlar!"

Bu murojaatlar da'vat maqsadiga xizmat qiladi, perlokutsion jihatdan esa o'quvchida mas'uliyat hissini uyg'otadi. Shunday qilib, murojaat bu asarlarda ijtimoiy kommunikatsiyaning faol shaklidir. Avloniy asarlarida murojaatlarning didaktik xususiyati quyidagicha: Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida murojaatlar orqali o'quvchini tarbiyaviy faoliyatga jalb etadi:

"Ey bolalar!", "Ey vatandoshlar!", "Ey o'quvchi birodarlar!"

Bu murojaatlar pedagogik kommunikatsiya namunasi bo'lib, yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni samimiy va ishonchli qiladi. Murojaat birliklari o'quvchida o'ziga nisbatan murojaat qilinayotgani tuyg'usini uyg'otadi — bu esa matnni ta'sirchan qiladi. Cho'lpon va Hamza ijodida murojaatlarning emotsional-pragmatik vazifasi quyidagicha: Cho'lpon asarlarida murojaatlar ichki kechinma, ruhiy holatni ifodalash vositasidir.



Date: 7th October-2025

“Ey Vatan!”, “Ey ko‘nglim!”, “Ey orzu!”, “Ey inson!”

Bu murojaatlar asosan emotiv (his-tuyg‘u ifodalovchi) kommunikatsiyani yuzaga keltiradi. Hamza asarlarida esa murojaatlar xalqni jaholatdan chiqarish, islohotga chorlov maqsadida qo‘llanadi:

“Ey xalqim, uyg‘on!”, “Ey birodar, bilimingni oshir!”

Bu esa murojaatning ogohlik va islohiy vazifasini ko‘rsatadi.

O‘zbek matnshunosligida (M. Abdupattoyev, 1998) supersintaktik butunlik nazariyasiga ko‘ra, murojaat birliklari matnning ta’sirchan yadrosini tashkil etadi. Jadid adabiyotida ular asar kompozitsiyasining boshlanishida yoki yakunida joylashib, asosiy g‘oyani ta’kidlaydi. Demak, murojaat birliklari matn semantikasini faollashtiruvchi kommunikativ markaz sifatida qaraladi.

Muhokama va natijalar. Jadid adiblari asarlarida murojaat birliklarining qo‘llanilishi nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, murojaat birliklari jadid adabiyotida ikki asosiy funksiyani bajaradi: kommunikativ va didaktik. Kommunikativ jihatdan murojaatlar muloqot ishtirokchilari o‘rtasida aloqa o‘rnatish, e’tibor qaratish, hissiy yaqinlikni ifodalash vositasi bo‘lsa, didaktik nuqtai nazardan ular tarbiyaviy g‘oyalarni yetkazish, milliy ongni shakllantirish va ma’naviy uyg‘onishga chaqirish vazifasini bajaradi.

Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza, Behbudiy kabi jadid adiblarining matnlarida “ey millat”, “aziz vatandoshlar”, “qardoshlar”, “ey yoshlar” kabi murojaat birliklari keng qo‘llanilib, ular orqali xalqni uyg‘otish, ijtimoiy befarqlikni yo‘qotish va yangicha tafakkurni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu jihatdan murojaatlar jadidlar nutqida milliy ruh va mafkuraviy mazmunni kuchaytiruvchi pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari murojaat birliklarining stilistik va kommunikativ qatlamlarda o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ularning tanlanishi muallifning nutqiy maqsadi, adresat bilan masofasi, ijtimoiy mavqei va axborot uzatish uslubiga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, jadidlar murojaatlar orqali matnning ta’sirchanlik darajasini oshirib, o‘quvchida javob reaksiya — fikrlash, tahlil qilish, o‘zgarishga intilish kabi psixologik jarayonlarni faollashtirgan. Umuman olganda, murojaat birliklari jadid adabiyotida nutqiy ta’sirchanlikning markaziy unsuri bo‘lib, ular orqali yozuvchi o‘z maqsadini ifoda etadi, o‘quvchiga bevosita murojaat qilib, uni ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotning faol ishtirokchisiga aylantirishga da’vat etadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadid adiblarining asarlarida murojaat birliklari nafaqat grammatik yoki stilistik vosita, balki ijtimoiy-psixologik ta’sir kuchiga ega kommunikativ birlik sifatida faol ishlatilgan. Ular orqali muallif o‘quvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatgan, milliy o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik va uyg‘onish g‘oyalarini singdirgan. Shunday qilib, jadidlar ijodida murojaat birliklari o‘zbek adabiy tilining ta’sirchan, ogohlikka undovchi shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2000.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘zbekiston, 1992.



Date: 7th October-2025

3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2017.
4. Hamza H. Yangi saodat. – T.: Adabiyot va san'at, 1987.
5. Abdupattoyev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. – T.: Fan, 1998.
6. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. – Samarqand, 2007.
7. Said Ahmad Vasliy. O'qituvchilik va milliy uyg'onish haqida maqolalar. – Buxoro, 1923.
8. Sadriddin Ayniy. Esdaliklar; Tarjimai hol; Madaniyat tarixi lavhalari. – Dushanbe: Irfon, 1978.
9. Shamsiyev P. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 201
10. Toirova G.I. Nutq muloqot situativ pragmatik sistema sifatida. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2013

